

Materiklar bo‘ylab sayohat



Yer sayyoramiz juda katta va xilma-xildir. Uning ko‘p qismi suv bilan qoplangan, ammo unda **materiklar** deb ataluvchi quruqlikning ulkan qismlari mavjud. Materiklar jami oltita: **Yevrosiyo**, **Afrika**, **Shimoliy Amerika**, **Janubiy Amerika**, **Avstraliya**, **Antarktida**.



Qiziq, materiklar qanday paydo bo‘lgan?

Millionlab yillar avval Yer yuzi hozirgidek ko‘rinishda bo‘lmagan. U vaqtda unda **Pangeya** deb ataluvchi faqat bitta ulkan materik bo‘lgan.



Pangeya – “pan” (hamma) va “geya” (yer) so‘zlaridan olingan bo‘lib, “hamma yer” degan ma‘noni anglatadi. Uning atrofini cheksiz okean o‘rab turgan (**1-rasm**).

Pangeya



1-rasm.

Ammo vaqt o'tishi bilan **Pangeya** bo'linib, qismlarga ajralgan va ular asta-sekin bir-biridan uzoqlasha boshlagan. Million yillardan keyin ular bizga ma'lum **materiklarga** aylangan (2-rasm).

- 1 **Yevrosiyo** – eng katta materik.
- 2 **Afrika** – eng issiq materik.
- 3 **Shimoliy Amerika** – o'rmonlar va daryolar o'lkasi.
- 4 **Janubiy Amerika** – changalzor o'rmonlarga boy materik.
- 5 **Avstraliya** – eng kichik materik.
- 6 **Antarktida** – muzli kenglik.



2-rasm.



Yevrosiyo eng katta materik bo'lib, u ikki qit'a – **Yevropa** va **Osiyo** qit'alarini o'z ichiga oladi. Bu yerda Yer yuzidagi eng baland nuqta – **Jomolungma** (Everest) **cho'qqisiga** ega Himolay tog'lari joylashgan. Uning hayvonot dunyosini **ayiq, yo'lbars, qoplon, panda, bo'ri, qunduz, kaltakesak, ilon, kemiruvchilar** va boshqa ko'plab jonzorlar tashkil etadi.

Afrika – kattaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi eng issiq materik. Bu yerda dunyodagi eng katta **Sahroyi Kabir cho'li** joylashgan. Afrikada **fil, jirafa, sher, zebra** kabi hayvonlar yashaydi. Yer yuzidagi eng uzun **Nil daryosi** shu yerdan oqib o'tadi.



Shimoliy Amerika – katta daryolari va o'rmonlari bilan mashhur bo'lgan materik. Bu yerda cheksiz tekisliklar va mashhur **Niagara sharsharasi** mavjud. Shimoliy Amerikada **grizli ayiqlari, bizon, koyot** va shu kabi boshqa hayvonlar uchraydi.



Janubiy Amerika – ulkan tropik o‘rmonlar materigi. Bu yerda rang-barang **to‘tiqushlar**, **yalqovlar**, **yaguarlar** yashaydi. Shuningdek, Yer yuzidagi eng sersuv **Amazonka** daryosi ham shu yerdan oqib o‘tadi.

Avstraliya – eng kichik materik. Bu yerda boshqa joylarda uchramaydigan **koala**, **kenguru** va **o‘rdakburun** kabi g‘aroyib hayvonlar yashaydi.

Avstraliyada cho‘llar ko‘p, u yerlarda issiq iqlim hukmronlik qiladi. Shuningdek, mashhur marjon qoyalarni ham shu yerda uchratish mumkin.



Antarktida – eng sovuq materik. Bu yerda deyarli doim qish bo‘ladi, hatto yozda ham qor erimaydi. Bu yerda odamlar doimiy yashamaydilar, faqat olimlar tabiatni o‘rganish uchun keladilar. Antarktidaning asosiy jonivorlari – **pingvinlar** va **tulenlar**.



Barcha materiklar har xil va ular birgalikda bizning ajoyib sayyoramiz – Yerni tashkil qiladi.



Rasmlardan materiklarni toping va ularning nomini ayting.



1. Millionlab yillar avval mavjud bo'lgan **yagona materik** qanday atalgan?
2. Vaqt o'tishi bilan unda nimalar sodir bo'lgan?
3. Yer yuzida nechta materik bor? Ularni ayting.
4. Qaysi materik ikki qit'adan tashkil topgan?
5. **Sahroyi Kabir** qaysi materikda joylashgan?
6. **Kenguru** va **koalalar** qayerda yashaydi?
7. Qaysi materik eng **sovuq**?
8. Eng katta changalzor o'rmonlar qaysi materikda joylashgan?
9. **Grizli ayiqlari**, **bizonlar**, **koyotlar** qayerda yashaydi?



Nima uchun materiklardagi **flora** (o'simliklar olami) va **fauna** (hayvonot olami) turlicha?



Qadimgi **Pangeya** superqit'asi xartasini tuzing. Bir vaqtlar uning tarkibiga kirgan hozirgi materiklarni belgilang.

